JOURNAL OF DIGITAL LAW AND INNOVATION

(JDLI)

LAW • TECHNOLOGY • INNOVATION • JUSTICE

OPEN ACCESS

ISSN 3093-9364

OUR FIELDS

- Digital law
- Cybersecurity law
- Artificial intelligence and robotics law
- Intellectual property law
- LegalTech and legal innovations
- E-government and digital public services
- Legal aspects of Agriotech and Greentech
- Smart city and digital governance

OUR INDEXING

- Google Scholar
- Zenodo
- DOI
- OpenAIRE
- Open Access



https://unireview.uz/index.php/jdli

VOLUME 3 | ISSUE 1

Published by UniLex Global

OCTOBER 2026



“UNILEX GLOBAL” LLC

Raqamli huquq va innovatsiya jurnali
Journal of Digital Law and Innovation

October, 2026
VOLUME 3, ISSUE 1

EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Member Borotov Mirodiljon Xomudjonovich** — Doctor of Legal Sciences, Professor, Head of the Department of Civil Law, International Law and International Organizations, Institute of State and Law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Member Maripova Sevarxon Aribjanovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor, Department of Social Sciences, Cyber University State University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Member Kaharova Munira Maxamajanovna** — Doctor of Political Sciences (DSc), Researcher, Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Member Yuldashev Mutalib Ibrohimovich** — Doctor of Economic Sciences, Professor, Department of Economics, Tashkent University of Science and Technology, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial Board Member Bafaev Shukhrat Gafurovich** — Doctor of Legal Sciences, Head of the Tashkent City Branch, Center for the Analysis of Democratic Processes, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Member Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), “Academy of Labor and Social Relations” under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Member Khudoyberdieva Viloyat Jabbrovanovna** — Candidate of Legal Sciences (PhD), Olmazor District Department of Public Education, Tashkent City, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Member Boboumarova Munira Kurbonovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Department for Organization of Investigative Activities, Investigation Division, Tashkent City Internal Affairs Department, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Member Usmonov Vosid Muhammadievich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Diplomatic University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Member Mirzayeva Malika Baxadirovna** — Doctoral Researcher, PhD, Associate Professor, Department of Digital Technologies and Artificial Intelligence, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Member Allayorov Tulqin Ruziqulovich** — Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor, Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Member Tosheva Maftuna Anvar kizi** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Member Askarov Jaloliddin Toychievich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Deputy Head, Department of Business Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Member Abdixakimov Islombek Bahodir o‘g‘li** — Master of Law (LL.M), Head of the Artificial Intelligence and Legal Tech Laboratory, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Member Kalandarov Aminjon Amondullayevich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Acting Associate Professor, Department of Business Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Member Hakimov Komil Bakhtiyarovich** — Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

UNILEX GLOBAL

ISSN 3093 - 9364

RAQAMLI HUQUQ VA INNOVATSIYA / DIGITAL LAW AND INNOVATION

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR YUZASIDAN MILLIY HAMDA XALQARO STANDARTLAR

Iskandarova Nafisaxon O‘tkir qizi
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti,
Ekologiya va huquq fakulteti,
Yurisprudensiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi

MAQOLA MA’LUMOTI

Kalit so‘zlar:
jinoyat huquqi, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, Jinoyat kodeksi, Oliy sud Plenumi, xalqaro standartlar, BMT, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat.

A N N O T A T S I Y A

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning huquqiy tabiati va ularni qo‘llash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy qonunchilik normalari Oliy sud Plenumining tegishli qarorlari hamda BMTning xalqaro huquqiy hujjatlari bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan o‘rganiladi. Tahlil natijalari asosida jinoyat-huquqiy normalarni talqin qilish va qo‘llashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

NATIONAL AND INTERNATIONAL STANDARDS ON CIRCUMSTANCES EXCLUDING THE CRIMINALITY OF AN ACT

ARTICLE INFO

Keywords:
criminal law, circumstances precluding the criminality of an act, Criminal Code, Plenum of the Supreme Court, international standards, United Nations, necessary defense, necessity.

A B S T R A C T

This article examines the legal nature of the circumstances precluding the criminality of an act under the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and the issues arising in their application. The provisions of national legislation are analyzed comparatively, with reference to relevant resolutions of the Plenum of the Supreme Court and international legal instruments of the United Nations. Based on the analysis, the article puts forward practical and scholarly proposals to improve the interpretation and application of criminal law provisions.

UNILEX GLOBAL

ISSN 3093 - 9364

RAQAMLI HUQUQ VA INNOVATSIYA / DIGITAL LAW AND INNOVATION

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ПО ОБСТОЯТЕЛЬСТВАМ, ИСКЛЮЧАЮЩИМ ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:
уголовное право, обстоятельства, исключающие преступность деяния, Уголовный кодекс, Пленум Верховного суда, международные стандарты, ООН, необходимая оборона, крайняя необходимость.

А Н Н О Т А Т С И Я

В статье анализируются правовая природа обстоятельств, исключающих преступность деяния, предусмотренных Уголовным кодексом Республики Узбекистан, а также вопросы их применения. Нормы национального законодательства рассматриваются в сравнительно-правовом аспекте с учётом соответствующих постановлений Пленума Верховного суда и международно-правовых документов Организации Объединённых Наций. По результатам анализа сформулированы научно-практические предложения, направленные на совершенствование толкования и применения уголовно-правовых норм.

KIRISH

Jinoyat huquqida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni to‘g‘ri aniqlash shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, asossiz jinoiy javobgarlikka tortilishining oldini olish hamda qonuniy xatti-harakatlarga huquqiy baho berishda muhim ahamiyatga ega. Ayrim vaziyatlarda shaxsning harakati tashqi tomondan jinoyat alomatlariga o‘xshashi mumkin. Biroq qilmish qonunda belgilangan shartlar asosida sodir etilgan bo‘lsa, u jinoiy deb topilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35-moddasida bunday holatlarning umumiy tushunchasi va turlari belgilangan. Keyingi 36–41-moddalarda kam ahamiyatli qilmish, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish, buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish, kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq asosli tavakkalchilik hamda jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish natijasida qilmish sodir etish holatlari tartibga solingan [1].

Mazkur normalarni qo‘llashda qilmish sodir etilgan vaziyat, xavfning xususiyati, shaxsning harakat qilish imkoniyati, ko‘rilgan choralarning zaruriyligi va yetkazilgan zararning miqdori kabi omillarni birgalikda baholash talab etiladi. Ushbu mezonlarga rioya qilinmasligi qonuniy himoyalanish yoki boshqa ijtimoiy zarur harakatlarni noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin. Shu bois, qonun normalarining mazmunini Oliy sud Plenumi tushuntirishlari va tegishli xalqaro hujjatlar bilan qiyosiy o‘rganish dolzarbdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishga asoslangan. Uning asosiy manbalarini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35–41-moddalari, maqolada ko‘rib chiqilayotgan masalalarga aloqador Oliy sud Plenumi qarorlari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan xalqaro hujjatlar tashkil etdi [1–5]. Xalqaro hujjatlar qatorida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Qiynoqlarga qarshi konvensiya va kuch ishlatishga doir BMT tamoyillari ko‘rib chiqildi.

Formal-yuridik tahlil usuli Jinoyat kodeksidagi normalarning mazmuni va huquqiy shartlarini aniqlashda qo‘llanildi. Tizimli tahlil orqali 35–41-moddalardagi holatlarning jinoyat huquqi tizimidagi o‘rni hamda ular o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil milliy normalar va maqolada tahlil qilinayotgan xalqaro hujjatlardagi yondashuvlarni solishtirish uchun ishlatildi. Mantiqiy tahlil va umumlashtirish asosida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni qo‘llashga doir xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning umumiy tavsifi

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35-moddasi qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning umumiy mezonini belgilaydi. Unga ko‘ra, qilmishda Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa ham, u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmish jinoiy deb topilmaydi. Kodeksda bunday holatlar sifatida kam ahamiyatli qilmish, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish, buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, asosli tavakkalchilik hamda jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish ko‘rsatilgan.

Moddalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu holatlarning barchasi bitta umumiy natijaga — qonunda belgilangan shartlar mavjud bo‘lganda qilmishni jinoyat deb baholamaslikka olib keladi. Biroq ularni qo‘llash mezonlari bir xil emas: ayrimlarida qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi, boshqalarida xavfning muqarrarligi, zararning mutanosibligi, shaxsning o‘z harakatini boshqarish imkoniyati yoki bajarilgan buyruqning qonuniyligi aniqlanishi lozim

Jadval 1. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiylikni istisno qiluvchi holatlar

Modda	Holat	Qonunda belgilangan asosiy shart	Huquqiy natija
35-modda	Umumiy tushuncha	Qilmishda jinoyat alomatlari rasman mavjud bo‘lsa-da, u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasligi	Qilmish jinoiy deb topilmaydi
36-modda	Kam ahamiyatli qilmish	Harakat yoki harakatsizlik Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan alomatlarga ega bo‘lsa-da, kam ahamiyatliligi sababli ijtimoiy xavfli bo‘lmasligi	Qilmish jinoyat hisoblanmaydi
37-modda	Zaruriy mudofaa	Shaxs o‘zini, boshqa kishini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzdan himoya qilishi; mudofaa tajovuz xususiyati va xavfliligiga mutlaqo nomuvofiq bo‘lmasligi	Belgilangan chegaradan chiqilmagan bo‘lsa, qilmish jinoyat deb topilmaydi
38-modda	Oxirgi zarurat	Xavfni boshqa choralar bilan qaytarish imkoni bo‘lmasligi va yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo‘lishi	Qilmish jinoyat hisoblanmaydi
39-modda	Shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish	Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni vakolatli organlarga topshirish maqsadi va ushlash uchun zarur choralar chegarasiga rioya etilishi	Zarur choralar chegarasidan chiqilmagan bo‘lsa, qilmish jinoyat deb topilmaydi
40-modda	Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish	Buyruq, farmoyish yoki mansab vazifasi qonuniy ravishda bajarilishi	Qonuniy ijro natijasida yetkazilgan zarar jinoiylikni keltirib chiqarmaydi
41-modda	Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik	Ijtimoiy foydali maqsad, maqsadga tavakkal qilmasdan erishish imkonsizligi, tegishli ehtiyot choralarining ko‘rilishi va odamlar hayoti, ekologik halokat yoki boshqa og‘ir oqibatlar xavfining oldindan ma’lum bo‘lmasligi	Qonundagi shartlarga javob beruvchi tavakkalchilik asosli deb topiladi
41¹-modda	Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish	Majburlash oqibatida shaxs o‘z harakatlarini yoki harakatsizligini boshqara olmagan bo‘lishi	Bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi; boshqarish imkoniyati saqlangan bo‘lsa, masala 38-modda qoidalari asosida baholanadi

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35–41¹-moddalari. Jadval qonun normalarining mazmuni asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Moddalar tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

1. Jinoyat kodeksining 35-moddasi ushbu institut uchun umumiy huquqiy mezonni belgilaydi, 36–41¹-moddalar esa alohida holatlarning shartlarini ochib beradi.

2. Zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat bir-biridan xavf manbai hamda qilmishning yo‘nalishi bilan farqlanadi: zaruriy mudofaada qonunga xilof tajovuz qaytariladi, oxirgi zaruratda esa boshqa xavfni bartaraf etish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatga zarar yetkazilishi mumkin.

3. Shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning qonuniyligi ushlash maqsadi va zarur choralar chegarasiga rioya etilganiga bog‘liq. Bu holatni zaruriy mudofaa bilan tenglashtirish mumkin emas, chunki uning bevosita maqsadi tajovuzni qaytarishdan ko‘ra, qilmish sodir etgan shaxsni vakolatli organlarga topshirishdir.

4. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etishda buyruqning qonuniyligi alohida ahamiyatga ega. Qonuniy buyruqni bajarish bilan jinoiyligi ayon bo‘lgan buyruqni bajarishning huquqiy oqibatlari farqlanadi.

5. Asosli tavakkalchilikda ijtimoiy foydali maqsadning mavjudligi bilan bir qatorda, unga erishishning boshqa imkoniyati va zarar xavfini kamaytirish choralari ham tekshirilishi kerak.

6. Majburlash holatlarida shaxsning harakatlarini boshqarish imkoniyati saqlangan yoki saqlanmagani aniqlanishi lozim. Shu mezon 41¹-moddaning qo‘llanishini oxirgi zarurat qoidalaridan ajratishga yordam beradi.

MUHOKAMA

Jinoyat kodeksining 35–41¹-moddalari tahlili qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar yagona huquqiy maqsadga — qonuniy yoki muayyan vaziyatda ijtimoiy zarur bo‘lgan qilmishni jinoyat deb baholashning oldini olishga — xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har bir holatning huquqiy shartlari alohida bo‘lib, ularni umumiy yoki bir xil mezon asosida baholash mumkin emas. Jinoyat kodeksining 35-moddasi umumiy tushunchani, keyingi moddalar esa alohida holatlarni belgilaydi.

Zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat institutlari o‘rtasidagi farqni aniq ajratish amaliy ahamiyatga ega. Zaruriy mudofaada qilmish qonunga xilof tajovuzni qaytarishga qaratiladi; oxirgi zaruratda esa boshqa choralar bilan bartaraf etib bo‘lmaydigan xavfni qaytarish uchun muayyan manfaatga zarar yetkazilishi mumkin. Oxirgi zaruratni qo‘llashda xavfning mavjudligi, uni boshqa yo‘l bilan bartaraf etish imkoni va yetkazilgan zarar bilan oldi olingan

zarar o‘rtasidagi nisbat tekshiriladi. Zaruriy mudofaada esa hujumning xususiyati va xavflilik darajasi, mudofaa sharoiti hamda himoyalanuvchining imkoniyatlari hisobga olinadi.

Oliy sud Plenumining zaruriy mudofaa haqidagi qarorida sudlarga faqat yetkazilgan zararning og‘irligiga qarab xulosa chiqarmaslik, tajovuzning xususiyati, kutilmaganligi, taraflarning kuchlari va voqea sharoitlarini birgalikda baholash zarurligi tushuntirilgan. Bu yondashuv Jinoyat kodeksining 37-moddasini qo‘llashda mudofaalanuvchining harakatlarini hodisaning haqiqiy sharoitidan ajratib baholamaslik kerakligini ko‘rsatadi.

Shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish ham zaruriy mudofaadan farqli huquqiy maqsadga ega: bunda asosiy maqsad tajovuzni qaytarish emas, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirishdir. Shu sababli ushlash zarurati, qo‘llangan vositalarning vaziyatga muvofiqligi va zarar yetkazishning oldini olish mumkin bo‘lgan-bo‘lmaganligi alohida aniqlanishi lozim. Qonun jabrlanuvchi va boshqa fuqarolarga ham shaxsni ushlash huquqini beradi, biroq bu huquq zarur choralar chegarasiga rioya etish sharti bilan amalga oshiriladi.

Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish holatida buyruqning qonuniyligi markaziy mezon hisoblanadi. Qonuniy buyruqni yoki mansab vazifasini bajarish tufayli zarar yuzaga kelishi qilmishni avtomatik ravishda jinoyatga aylantirmaydi. Biroq jinoiyligi oldindan ayon bo‘lgan buyruqni bajarish jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Bu qoida buyruqni bergan shaxsning ko‘rsatmasi bilan uni bajargan shaxsning mustaqil huquqiy mas’uliyatini farqlashni talab qiladi.

Asosli tavakkalchilik va majburlash holatlarini baholashda ham qonunda belgilangan shartlarni to‘liq aniqlash muhim. Asosli tavakkalchilikda ijtimoiy foydali maqsad, unga xavf-xatarsiz erishish imkoni bo‘lmagani va zarar xavfini kamaytirish choralari ko‘rilgani tekshiriladi. Majburlash holatida esa shaxs o‘z harakatlarini boshqara olgan-olmagani aniqlanadi. Boshqarish imkoniyati saqlangan bo‘lsa, javobgarlik masalasi oxirgi zarurat qoidalarini hisobga olgan holda hal qilinadi.

Xalqaro hujjatlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, insonning hayoti, erkinligi va xavfsizligini himoya qilish, shuningdek huquqni muhofaza qilish faoliyatida kuch ishlatishning zaruriyligi va mutanosibligi xalqaro hujjatlarda ham muhim tamoyillar sifatida qayd etilgan. Biroq mazkur hujjatlarning predmet doirasi turlicha: masalan, BMTning kuch ishlatish bo‘yicha asosiy prinsiplari, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi mansabdor shaxslar faoliyatiga taalluqlidir. Shu bois ularni Jinoyat kodeksidagi barcha istisno holatlar bilan aynan

tenglashtirish emas, tegishli normalarni sharhlashda qiyosiy mezon sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Tadqiqot natijasida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35–41¹-moddalarida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning umumiy tushunchasi va ularni qo‘llash shartlari belgilanganligi aniqlandi. Ushbu normalar qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjud bo‘lganida, tashqi tomondan jinoyat alomatlariga o‘xshash qilmishlarni jinoiy deb baholamaslikka xizmat qiladi.

Moddalar tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Jinoyat kodeksining 35-moddasi mazkur institutning umumiy asoslarini belgilaydi. 36–41¹-moddalarda esa har bir holatni qo‘llashning o‘ziga xos shartlari ko‘rsatilgan.
2. Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish xavfning manbai, qilmishning maqsadi hamda zararni baholash mezonlariga ko‘ra farqlanadi. Shu sababli ularni huquqiy jihatdan aralashtirib talqin qilmaslik lozim.
3. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etishda buyruqning qonuniyligi, asosli tavakkalchilikda esa ijtimoiy foydali maqsad va zarar xavfini kamaytirish choralarining ko‘rilgani aniqlanishi kerak.
4. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish holatini tahlil qilishda shaxsning o‘z harakatlarini boshqarish imkoniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu holat Jinoyat kodeksining 41¹-moddasida, asosli tavakkalchilik esa 41-moddasida tartibga solingan.
5. Har bir holat bo‘yicha qaror chiqarishda qilmish sodir etilgan vaziyat, xavfning xususiyati, shaxsning imkoniyatlari, harakatning maqsadi va yetkazilgan zarar kabi omillar birgalikda baholanishi zarur.

Shu asosda sud-tergov amaliyotida har bir istisno holatni tegishli moddaning mezonlari asosida baholash, zaruriy mudofaa bilan oxirgi zaruratni farqlash hamda 41¹-modda qoidalarini 41-modda qoidalaridan alohida qo‘llash tavsiya etiladi. Xalqaro hujjatlarga murojaat qilinganda, ularning huquqiy kuchi va tartibga solish doirasini hisobga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr, 2012-XII-son. Amaldagi tahrir. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/acts/-111453
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 39-sonli “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarori. https://lex.uz/acts/-1442647
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli “Sud hukmi to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/uz/docs/2413562
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-rezolyutsiyasi. https://www.ohchr.org/en/UDHR/Documents/60UDHR/DECLARATION.pdf
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya. 1984-yil 10-dekabr. https://www.ohchr.org/Documents/ProfessionalInterest/cat.pdf
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Huquqni muhofaza qiluvchi mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o‘qotar qurollarni qo‘llashning asosiy prinsiplari. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha sakkizinchi Kongressida qabul qilingan, Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentabr. https://searchlibrary.ohchr.org/record/11223/files/11223.pdf